

**“QORAQOLPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MINTAQASIGA
IQLIMLASHTIRILGAN EVROPA VA MAHALLIY NOK NAVLARI,
NOKNI UMUNY TAVSIFI VA ETISHTIRISH TARTIBI”**

Yusupova Malohat Sadillaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 3-bosqich doktoranti (PhD)

Reynazarova Gulperiyyat Nukusbayevna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

q.x.f.f.d asisstanti Gulperiyyat.@gmail.com

Uzaqbergenov Ulug‘bek Tanatar uli

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI Qoraqolpoq ITS ilmiy ishlar

va innovatsiyalar direktori o‘rinbosari

Annotatsiya: Ilmiy maqolada nokning umumiy xususiyatlari va mahalliy urug‘li mevali payvantaglarga nokning Evropa Oliva de Serr navini o‘z muddatida payvandlash va ularni o‘sishi rivojlanishini va fenologik fazalarning o‘tishi davomiyligi hamda muddatini aniqlash bo‘yicha ishlar olib borildi.

Kalit so‘zlar: Nok o‘simligi, payvantag, urug‘li mevalar payvantagi, variant Olive de serr navi.

Аннотация: В научной статье проведены работы по общей характеристике груши и определению продолжительности и длительности перехода фенологических фаз европейского сорта груши Олива де Серр прививкой на местные семенные прививки плодов и их развитие роста.

Ключевые слова: растение груши, прививка, прививка семян, вариант сорта Олив де Серр.

Abstract: In the scientific article, work was carried out on the general characteristics of the pear and the determination of the duration and duration of the transition of phenological phases of the European pear variety Oliva de Serre by grafting onto local seed grafts of fruits and their growth development.

Key words: pear plant, grafting, seed grafting, variant of the Olive de Serre variety.

Bugungi kunda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» ning 3.30-bandida ham «Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish» masalalari alohida belgilab qo‘yilgan. Nok mevali o‘simliklari qadimdan boshqa mevalar singari hozirgi vaqtgacha yetib

kelgan hisoblanadi. Nok ming yillar oldinlari qadimgi Yunonistondan kelib chiqqan bo‘lib hozirda nokning harxil navlari manzarali o‘simlik sifatida va mevali daraxtlar sifatida foydalanilib kelinmoqda.

Nok - Rosaceae oilasiga mansub bargli, mevali daraxt hisoblanadi. Urug‘li mevalar orasida esa olma daraxtidan keyin egallagan maydoni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Nok daraxti 50 dan 300 yilgacha yashaydi. Bu daraxt yorug‘likni yaxshi ko‘ruvchi, qurg‘oqchilik va sovuqqa o‘rtacha darajada chidamli, qumli va sho‘r yerlardan tashqari hamma joyda yaxshi o‘sadi.

Nokning og‘ir va egiluvchan qattiq yog‘ochi buyumlar uchun yani faqat bino ichkarisida foydalaniladigan buyumlar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Nok yog‘ochining tuzilishi juda ingichka, bir tekis va biroz farqlanadigan yillik halqalarga ega hisoblanadi. Markaziy Osiyoda XIX-asr oxiridan Yevropa nok navlari yetishtirila boshlagan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa va AQSHdan olib kelingan nok navlari keng tarqalgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda nokning 17 navi yetishtirib kelinmoqda, va nokning turli xilligiga qarab, ular mamlakatning derlik barcha hududlarida ekilib kelinmoqda. Nok payvandlab ko‘paytiriladigan o‘simlik turlariga kirib, 5-6 yilda meva beradigan ikki yoshi ko‘chatlardan yaratiladi. Nok mevalari shakli bo‘yicha yassilangan va yumoloq bo‘lib, yuzasi xiraroq, pishib etilish paytida och sariq rangga kirib qizil nuqtalar qoplanadi. Ta‘mi shirin, suvli pulpasi oq-sariq og‘izda eriydigan fosfarga boy meva hisoblanadi.

Shu sababli biz tajribalarimizda nok o‘simligini xususiyatlarini o‘rganish maqsadida Qoraqolpog‘iston Respublikasi sharoitida etishtirish va plantatsiyalarini yaratish ustida 2024-2026 yillar davomida Kegeyli tumanida joylashgan Qoraqolpog‘iston ilmiy tajriba stansiyasi tajriba maydonida Nokning urug‘li payvantaglariga Fransiyada yaratilgan Olive de Serr nok navini payvand qilish, o‘shish, rivojlanishi va fenologik fazalarning o‘tishi davomiyligi hamda muddati, o‘simliklarda kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar, morfologik hamda biologik o‘zgarishlar bo‘yicha tajribalar olib borilmoqda.

Tadqiqotni olib borish sharoiti va uslubi. Tajribalar Toshkent akademik “M.Mirzayev nomidagi mevalilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti” loyihasida ishlab chiqilgan uslub bo‘yicha olib borilmoqda. Dala tajribalari Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Kegeyli tumani Qoraqolpog‘iston ilmiy tajriba stansiyasida o‘tkazilmoqda. Biometrik o‘lchovlar va hisoblar: har bir variantda 100 ta o‘simlikda olib borildi. Tajriba to‘rt qaytariqda o‘rganilmoqda.

Tajribalarimizda biz o‘rganayotgan payvand qilingan, nokning Olive de serr navini vegetatsiya davridagi o‘shish kuchi, rivojlanish davomidagi vegetatsiya fazasining o‘tish davomiyligi, o‘simlik novdalarini umumiy o‘shish uzunligi, shoxlanishi, barg bilan qoplanish, barg sathining o‘lchami va shu kabi bir qancha biometrik ko‘rsatkichlari fenologik kuzatuvlar davomida qayd etib borildi va tahlil

etildi. Nokning yangi novdalardagi yosh barglar dastlabki 12-15 kunda o‘zining rivojlanishi uchun daraxtning boshqa qismlarida ishlab chiqarilgan oziq moddalarni sarflaydi.



Nokning barg sathi yaxshi bo‘lsa, mevalarining o‘shishi uchun sharoit ham shuncha yaxshi bo‘ladi, Mevaning o‘shishi hisobiga barg qancha tog‘ri kelsa, u shuncha yaxshi rivojlanadi. Nokning yaxshi rivojlanishiga yorug‘likning tasiri katta. Daraxt oladigan yorug‘lik muqdiri quyosh nurining 70-80 foizidan tushib ketishi nok mevasi rangi va tarkibidagi eruvchan moddaga putur etkazadi hamda quyosh nuri kam tushishi o‘simlikda fotosintez, gul shakllanishi va mevalarning rivojlanishiga salbiy tasir ko‘rsatadi. Nokning ildizlarining rivojlanishida esa tuproq harorati 15-25 °S bo‘lganda yaxshi natija beradi. Nok ildizlari bir yilda ikki marotaba o‘shish davrini boshdan kechiradi ya’ni erta bahorda va kuzda hosil yig‘imi vaqtida yoki undan keyin sezilarli darajada o‘sadi. Ildizning bahorgi rivoji kurtaklar chiqib, tuproq o‘simliklar o‘shish uchun etarlicha ilishi bilan boshlanadi. Novdalar faol o‘shish jarayoniga o‘tganidan keyin ildizlar rivojlanishi sustlasha boshlaydi. Yoz fasli oxirlarida o‘simliklar shoxlari rivojlanishdan toqtagan va mevalarni rivojlanishi ham sekinlashgan paytida ildiz otish rivoji yana avj olishni boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda Qoraqolpog‘iston iqlimi sharoitida nokning Olive de serr navini mahalliy urug‘li payvantaglargacha payvand qilib, ko‘paytirish va fenologik fazalarni o‘tishi, rivojlanish davomiyligini kuzatish hisoblanadi. Hozirda Qoraqolpog‘iston ilmiy tajriba stansiyada mahalliy urug‘li payvantaglargacha shu yilning avgust oyida nokning Evropa Olive de serr navi payvand qilindi va hozirda ilmiy tajribalar asosida fenologik jarayonlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora tadbirlari tog‘risida” PQ-4575-son qarori. –Toshkent, 2020 yil 28-yanvar.

2. Ostanqulov T.E., Islamov C.Y., Xonqulov X.X., Sanaev S.T., Xolmirzaev D.K., “Mevachilik sabzavotchilik” S., 2011-y 232-250 b
3. Rajametov Sh., Abrorov Sh “Zamonaviy intensiv nok bog‘larini yaratish va parvarishlash texnologiyasi” Toshkent “Bakteria press”, 2018. b – 11-80
4. Aripov A.U., Aripov A.A., “Urug‘li intensiv meva bog‘lari” Toshkent: “Sharq”, 2013 –b 108-121.